Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 373.2:378.147
ORCID: 0009-0002-7132-7927

MUHAMMADIYEVA FERUZA TURAKULOVNA
Termiz davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchi E-mail: feruzamuhammadiyevna 484@gmail.com

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARI KASBIY TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida pedagogik mexanizmlarning mazmuni, tarkibiy tuzilishi va amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, metodik mahorati, kommunikativ madaniyati, ijodiy yondashuvi va refleksiv fikrlashini ham rivojlantirishni taqozo etadi. Maqolada kasbiy tayyorgarlik jarayoni motivatsion, mazmuniy, amaliy-faoliyatli, kommunikativ va baholash-refleksiv jihatlar asosida yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, interfaol metodlar, pedagogik vaziyatlar tahlili, kasbiy refleksiya va innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot mazmuni shuni ko'rsatadiki, pedagogik mexanizmlarni tizimli tashkil etish talabalarda kasbiy mas'uliyat, bolalar bilan ishlashga tayyorgarlik, metodik fikrlash va pedagogik muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: *maktabgacha ta'lim, bo'lajak tarbiyachi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mexanizm, kasbiy kompetentlik, metodik mahorat, pedagogik amaliyot, refleksiya, kommunikativ madaniyat, innovatsion yondashuv.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются сущность, структура и практическая значимость педагогических механизмов профессиональной подготовки будущих воспитателей дошкольного образования. Современные требования к личности воспитателя предполагают не только овладение теоретическими знаниями, но и развитие методической культуры, коммуникативных умений, творческого подхода и способности к профессиональной рефлексии. В работе профессиональная подготовка будущих воспитателей рассматривается через мотивационный, содержательный, практико-деятельностный, коммуникативный и рефлексивно-оценочный компоненты. Особое внимание уделяется компетентностному подходу, практико-ориентированному обучению, интерактивным методам, анализу педагогических ситуаций и применению инновационных образовательных технологий. Обосновано, что системная организация педагогических механизмов способствует формированию профессиональной ответственности, готовности к работе с детьми, методического мышления и способности самостоятельно решать педагогические задачи.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *дошкольное образование, будущий воспитатель, профессиональная подготовка, педагогический механизм, профессиональная компетентность, методическое мастерство, педагогическая практика, рефлексия, коммуникативная культура, инновационный подход.*

PEDAGOGICAL MECHANISMS OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATORS

ABSTRACT: This article analyzes the essence, structure, and practical significance of pedagogical mechanisms in the professional training of future preschool educators. Modern requirements for preschool teachers demand not only theoretical knowledge but also methodological competence, communicative culture, creativity, and reflective thinking. The article examines professional training through motivational, content-based, practical-activity, communicative, and reflective-evaluative components. Special attention is given to the competency-based approach, practice-oriented learning, interactive methods, analysis of pedagogical situations, and the use of innovative educational technologies. The study argues that the systematic organization of pedagogical mechanisms contributes to the development of professional responsibility, readiness to work with children, methodological thinking, and the ability to solve pedagogical problems independently.

Keywords: *preschool education, future educator, professional training, pedagogical mechanism, professional competence, methodological skills, pedagogical practice, reflection, communicative culture, innovative approach.*

KIRISH. Maktabgacha ta'lim jamiyatning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Bola shaxsining dastlabki tasavvurlari, atrof-muhitga munosabati, nutqiy faolligi, ijtimoiy xulqi, emotsional barqarorligi va bilishga qiziqishi aynan maktabgacha yosh davrida shakllana boshlaydi. Shu sababli ushbu bosqichda faoliyat yuritadigan tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boradigan pedagoglardan faqatgina bolalarni parvarish qilish yoki mashg'ulot o'tkazish emas, balki har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, rivojlantiruvchi muhit yaratish, ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish talab qilinmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonini mazmunan yangilash va pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kasbiy tayyorgarligi ko'p bosqichli va murakkab jarayondir. Mazkur jarayonda talaba pedagogika, psixologiya, metodika va bolalar rivojlanishiga oid bilimlarni egallaydi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, pedagogik vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutish tajribasini orttiradi. Biroq nazariy bilimlarning o'zi bo'lajak mutaxassisning real kasbiy faoliyatga to'liq tayyorligini ta'minlay olmaydi. Talaba egallagan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi, bolalar bilan muloqotga kirisha olishi, mashg'ulotlarni bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil eta olishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik mexanizmlar alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mexanizm deganda ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari va kutilayotgan natijalarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi tizim tushuniladi. Bunday mexanizmlar talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, amaliy faoliyatga moslashishini ta'minlash va pedagogik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilari kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda ushbu jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni asoslashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi mazmunini ilmiy jihatdan yoritish;
2. Pedagogik mexanizm tushunchasining mohiyati va tarkibiy qismlarini aniqlash;
3. Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda kompetensiyaviy, faoliyatli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyatini asoslash;
4. Bo'lajak tarbiyachilarda metodik, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatish;
5. Pedagogik amaliyot, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda kasbiy tayyorgarlik shaxsning ma'lum kasbga oid bilim, amaliy ko'nikma, qadriyat, motivatsiya va kasbiy xulq-atvor tajribasini egallash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Pedagogik faoliyatda esa bu jarayon yanada murakkab mazmun kasb etadi, chunki pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, yo'naltiruvchi va shaxsiy namuna ko'rsatuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kasbiy tayyorgarligi boshqa pedagogik yo'nalishlardan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Chunki tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydi, bu yosh davri esa bolaning psixik, nutqiy, jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida eng sezgir bosqich hisoblanadi. Shu bois tarbiyachidan bolalar psixologiyasini bilish, o'yin faoliyatini tashkil etish, rivojlantiruvchi muhit yaratish, bolalarning tabiiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va har bir bola bilan individual ishlash ko'nikmalari talab qilinadi.

Pedagogik manbalarda kasbiy kompetentlik ko'pincha bir nechta tarkibiy komponentlar asosida izohlanadi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida ular quyidagicha ifodalanadi: motivatsion komponent, kognitiv komponent, amaliy-faoliyatli komponent, kommunikativ komponent va refleksiv komponent. Motivatsion komponent talabaning kasbga qiziqishi, bolalar bilan ishlashga ichki ehtiyoji va kasbiy qadriyatlarini belgilaydi. Kognitiv komponent maktabgacha ta'lim metodikasi, pedagogika, psixologiya va bolalar rivojlanishi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Amaliy-faoliyatli komponent mashg'ulotlarni rejalashtirish, ta'limiy o'yinlarni tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni boshqarish va bolalar faoliyatini yo'naltirish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ komponent bo'lajak tarbiyachining bolalar, ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan samarali muloqot qilish malakasini anglatadi. Refleksiv komponent esa talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini anglay olishi, kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashi va o'z ustida izchil ishlash qobiliyati bilan bog'liqdir.

Tadqiqotda pedagogik mexanizmlar kasbiy tayyorgarlik jarayonini harakatga keltiruvchi, tartibga soluvchi va natijaga yo'naltiruvchi omillar tizimi sifatida qaraldi. Bunday mexanizmlar mazmuniy, metodik, tashkiliy, texnologik, kommunikativ va baholash-refleksiv qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda ishlaganda bo'lajak tarbiyachining kasbiy shakllanishi izchil va samarali kechadi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi. Amaliy metodlar sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, ta'lim jarayonini tahlil qilish, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va xulosalash metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar bo'lajak tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligining tarkibiy jihatlarini aniqlash va pedagogik mexanizmlarning amaliy ahamiyatini asoslash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini samarali shakllantirish uchun ta'lim jarayoni nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki talabani real pedagogik faoliyatga bosqichma-bosqich olib kirishi lozim. Bunda pedagogik mexanizmlar talabaning bilimini amaliy ko'nikmaga, amaliy ko'nikmasini esa kasbiy kompetensiyaga aylantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Kasbiy tayyorgarlikning samaradorligi birinchi navbatda talabaning kasbga nisbatan munosabati bilan bog'liq. Agar bo'lajak tarbiyachida bolalar bilan ishlashga qiziqish, pedagogik faoliyatga mas'uliyat va kasbiy o'sishga intilish shakllanmasa, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar yetarli natija bermaydi. Shu sababli motivatsion-rag'batlantiruvchi mexanizm kasbiy tayyorgarlikning boshlang'ich va asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm orqali talabalarda tarbiyachilik kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglash, bola shaxsiga hurmat bilan qarash va pedagogik faoliyatga ongli yondashish shakllanadi.

Mazmuniy-metodik mexanizm bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida markaziy o'rin egallaydi. Bu mexanizm o'quv fanlari mazmunini maktabgacha ta'lim amaliyoti bilan bog'lash, nazariy tushunchalarni aniq pedagogik vaziyatlar asosida tushuntirish va metodik bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishga yo'naltiriladi. Talaba bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish, rivojlantiruvchi o'yinlar tashkil etish, nutq o'stirish, sensor tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishni o'rganishi zarur. Faoliyatga yo'naltirilgan mexanizm bo'lajak tarbiyachining real kasbiy tajriba orttirishini ta'minlaydi. Seminar mashg'ulotlari, amaliy darslar, mikrota'lim, rolli o'yinlar, keys topshiriqlar, pedagogik treninglar va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi amaliyotlar bu mexanizmning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi. Aynan faoliyat jarayonida talaba nazariy bilimning amaliy qimmatini anglaydi, bolalar bilan muloqot qilishni o'rganadi va pedagogik vaziyatlarga mos qaror qabul qilish tajribasini egallaydi.

Kommunikativ mexanizm maktabgacha ta'lim tarbiyachisi kasbiy faoliyatining eng zarur jihatlaridan biridir. Chunki tarbiyachining asosiy faoliyati bolalar bilan bevosita muloqotda amalga oshadi. Bo'lajak tarbiyachi bolaning yoshiga mos nutqiy muhit yaratishi, savol-javob jarayonini to'g'ri tashkil etishi, bolalarni erkin fikrlashga undashi, ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilishi va pedagogik jamoada o'z fikrini asosli bayon eta olishi kerak. Shuning uchun oliy ta'lim jarayonida talabalar bilan kommunikativ mashqlar, suhbat texnologiyalari, nutq madaniyati bo'yicha topshiriqlar va pedagogik vaziyatlar asosida ishlash muhim ahamiyatga ega.

Refleksiv-baholash mexanizmi talabaning kasbiy o'sishini ichki tahlil asosida boshqarishga xizmat qiladi. Bo'lajak tarbiyachi o'zining amaliy harakatlarini baholay olishi, mashg'ulot jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, bolalar bilan muloqotdagi muammolarni tahlil qilishi va kelgusi faoliyati uchun xulosa chiqara olishi zarur. Pedagogik kundalik, portfolio, o'z-o'zini baholash varaqalari, tahliliy suhbatlar va refleksiv esse kabi vositalar bu jarayonda samarali hisoblanadi.

Tadqiqot davomida interfaol metodlardan foydalanish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faolligini oshirishi aniqlandi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Keys-stadi", "Rolli o'yin", "Loyiha metodi", "Muammoli vaziyat", "Bumerang", "Refleksiv suhbat" kabi metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularni vaziyatni tahlil qilishga, qaror qabul qilishga va jamoaviy faoliyatda ishtirok etishga o'rgatadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yo'nalishida rolli o'yinlar va pedagogik vaziyatlarni modellashtirish talabalarning kelajakdagi faoliyatiga yaqin sharoit yaratib beradi.

Pedagogik amaliyot esa bo'lajak tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligining muhim bosqichi hisoblanadi. Amaliyot davomida talaba bolalarning individual xususiyatlarini kuzatadi, tarbiyachi faoliyati bilan tanishadi, mashg'ulotlarni tashkil etadi, guruh muhitini o'rganadi va o'zining kasbiy imkoniyatlarini baholaydi. Nazariya va amaliyotning uzviy bog'lanishi talabaning kasbiy o'zini anglashiga, mas'uliyat hissining ortishiga va pedagogik tajribasining boyishiga olib keladi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligida pedagogik mexanizmlarni alohida-alohida emas, balki yagona tizim sifatida tashkil etish

zarur. Motivatsiya, bilim, amaliy faoliyat, muloqot va refleksiya bir-birini to'ldirgan taqdirdagina talabaning kasbiy kompetentligi to'liq shakllanadi. Bunday yondashuv tarbiyachilar tayyorlash jarayonini nazariy bayondan amaliy natijaga yo'naltiradi.

Umuman olganda, pedagogik mexanizmlar bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yo'naltiruvchi, rivojlantiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi vazifalarni bajaradi. Ularni samarali qo'llash orqali oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim sohasi uchun zamonaviy, ijodkor, kommunikativ va kasbiy mas'uliyatli mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda pedagogik mexanizmlarning ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatdi. Kasbiy tayyorgarlik talabaning nazariy bilimlari, metodik ko'nikmalari, amaliy tajribasi, kasbiy motivatsiyasi, muloqot madaniyati va refleksiv fikrlashini uzviy rivojlantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayondir.

Maqolada kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi asosiy mexanizmlar sifatida motivatsion-rag'batlantiruvchi, mazmuniy-metodik, faoliyatga yo'naltirilgan, kommunikativ va refleksiv-baholash mexanizmlari ajratib ko'rsatildi. Ushbu mexanizmlar o'zaro uyg'unlashgan holda talabalarning tarbiyachilik kasbiga ongli munosabatini, bolalar bilan ishlashga tayyorgarligini, metodik savodxonligini va pedagogik vaziyatlarda mustaqil harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqot asosida amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol metodlar, pedagogik treninglar, rolli o'yinlar, keys-stadi texnologiyalari, mustaqil ijodiy topshiriqlar va refleksiv tahlil bo'lajak tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vositalar ekani aniqlandi. Ayniqsa, pedagogik amaliyotni nazariy fanlar bilan uyg'unlashtirish talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga moslashuvini tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish uchun oliy ta'lim jarayonida pedagogik mexanizmlarni maqsadli, tizimli va amaliy faoliyatga yaqinlashtirilgan shaklda tashkil etish lozim. Bunday yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun zamonaviy fikrlaydigan, metodik jihatdan tayyor, kommunikativ madaniyatga ega va bolalar rivojlanishiga mas'uliyat bilan yondashadigan pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2.O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2019.
4.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. – Toshkent, 2018.
5."Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
6.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
7.Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2019.
8. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh., Qayumova N., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
9. Sodiqova Sh.A. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2013.
10. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU, 2013